
HAR BIR MUROJAAT IJOBİY HAL ETILMOQDA

Haftaning har seshanba kuni tuman hokimining fuqarolarni murojaatlarini qabul qilish kuni. Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani xalq qabulxonasida tuman hokimining navbatdagi qabuli o'tkazildi.

Unda 40 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Har bir murojaat mutasaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqildi. Moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, gaz, suv, elektr ta'minotini yaxshilash kabi 15 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etilib, 5 nafar fuqaroga bir martalik oziq-ovqat mahsulotlari berildi. Qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 10 tasi nazoratga olindi. 10 ta murojaatga atroflicha tushuntirishlar berildi.

Qabul davomida tumandagi korxonalar va tashkilotlarning mutasaddilari ham ishtirok etishib, har bir muammo joyida bartaraf etilmoqda. Ayrim talab etiladigan murojaatlar qat'iy nazoratga olinmoqda.
2022-07-05 15:38:28